4	Xitoy moliya institutlari	"O'zbekiston logistika markazlarini kengaytirish"	Transport va infratuzilma	3.8
5	Yaponiya moliya institutlari	"Raqamli ta'lim platformasini yaratish"	Ijtimoiy soha	1.5
		"Sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish"		1.4
6	Osiyo infratuzilma investitsiya banki	"Shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish"	Energetika va infratuzilma	1.6
7	Islom taraqqiyot banki (IsDB)	"Kichik biznes va mikroqarzlarni rivojlantirish"	Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish	0.944
8	Fransiya moliya institutlari	"Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik dasturi"	Yashil iqtisodiyot	0.977
9	Koreya moliya institutlari	"Raqamli hukumat va elektron xizmatlar"	Raqamli transformatsiya	0.74
10	Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF)	"Moliya sohasidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash"	Iqtisodiy islohotlar	0.669
11	Germaniya davlat banki (KfW)	"Energiya samaradorligini oshirish"	Ekologik loyihalar	0.415
12	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB)	"Sanoat infratuzilmasini rivojlantirish"	Sanoat va xizmatlar	0.341
13	Boshqa moliyaviy institutlar	"Mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlash"	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish	1.9

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash ushbu loyihalarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Smart irrigation" loyihasi suv tejovchi texnologiyalar hamda raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish orqali suv resurslaridan samarali foydalanish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur loyiha iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish hamda qishloq xo'jaligi sohasining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, "Qishloq xo'jaligini iqlimga moslashtirish" loyihalari paxtachilik, chorvachilik va bog'dorchilik sohalarida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirishga, qishloq joylarda yashovchi aholining daromadlarini barqarorlashtirishga hamda iqtisodiy faoliyatni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu loyihalar qishloq xo'jaligi sohasining kompleks rivojlanishiga, innovatsiyalarni joriy etish orqali eksport salohiyatining oshishiga ham sezilarli hissa qo'shmoqda.

Energetika sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatni ekologik toza va barqaror energiya tizimiga o'tkazish jarayonida muhim rol o'ynamoqda. Xalqaro investorlar tomonidan moliyalashtirilayotgan

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



“Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish” loyihasi 4,1 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar hisobiga O‘zbekiston energetika sektorining barqarorligini oshirish hamda uglerod izini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Fransiya moliya institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan “Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik dasturi” mamlakatda ekologik barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash yo‘lida muhim ahamiyatga ega.

Germaniya davlat banki (KfW) tomonidan moliyalashtirilayotgan “Energiya samaradorligini oshirish” loyihasi energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali energetika tizimining samaradorligini oshirish hamda zararli chiqindilar miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Mazkur loyihalar ekologik muvozanatni ta‘minlash, iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyasini amalga oshirish hamda mamlakat energetika tizimining barqarorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy sohada Yaponiya moliya institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Raqamli ta‘lim platformasini yaratish” hamda “Sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish” loyihalari mamlakat ijtimoiy infratuzilmasini sifat jihatdan takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu loyihalar doirasida 3000 dan ortiq maktab zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlanmoqda, shuningdek o‘qituvchilar uchun malaka oshirish markazlari tashkil etilmoqda (2-jadval).

2-jadval. Ekologiya, energetika, ijtimoiy va transport sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalar²

Loyiha nomi	Yo‘nalish	Maqsad
“Ichimlik suvi va sanitariya xizmatlarini yaxshilash”	Ijtimoiy soha	Toza ichimlik suvi bilan millionlab aholini ta‘minlash
“Yoshlar bandligini ta‘minlash va kasb-hunar tayyorlov markazlarini rivojlantirish”	Ijtimoiy soha	Yangi ish o‘rinlari yaratish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash
“Yashil obligatsiyalar”	Energetika va ekologiya	Ekologik toza energiyani rivojlantirish, havo sifati va atrof-muhitni muhofaza qilish
“Toshkent–Andijon” tezkor temir yo‘li qurilishi	Transport infratuzilmasi	Farg‘ona vodiysini eksport bozorlariga bog‘lash
“Trans-Afg‘on temir yo‘li”	Transport infratuzilmasi	Hind okeaniga chiqish imkoniyatini yaratish
“Smart irrigation”	Qishloq xo‘jaligi	Suv tejovchi texnologiyalar va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish
“Qishloq xo‘jaligini iqlimga moslashtirish”	Qishloq xo‘jaligi	Chorvachilik, paxtachilik va bog‘dorchilikda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish
“Ta‘limni sifat jihatidan transformatsiya qilish”	Ijtimoiy soha	3000 dan ortiq maktabni zamonaviy uskunalar bilan ta‘minlash va o‘qituvchilar malakasini oshirish
“Sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish”	Ijtimoiy soha	40 dan ortiq tibbiyot muassasasini zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlash
“Raqamli hukumat milliy platformasi”	Raqamli transformatsiya	Davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va axborot tizimlari integratsiyasini ta‘minlash
“Toshkent Islom tamadduni markazi”	Ijtimoiy soha va madaniyat	Madaniy va diniy merosni saqlash hamda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish
“Yashil hududlar”	Ekologiya	Ekologik infratuzilmani yaxshilash (Qoraqalpog‘iston, Buxoro)

Shuningdek, 40 dan ortiq tibbiyot muassasasi zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlanib, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. “Ichimlik suvi va sanitariya xizmatlarini yaxshilash” loyihasi esa millionlab aholining sog‘lom yashash sharoitlarini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom taraqqiyot bankining kichik biznes va mikroqarzlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda, ayniqsa, yoshlar bandligini ta‘minlash uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, “Yoshlar bandligini ta‘minlash va kasb-hunar tayyorlov markazlarini rivojlantirish” loyihasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya yo‘nalishida Koreya moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan “Raqamli hukumat va elektron xizmatlar” loyihasi davlat boshqaruvi tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat xizmatlarini avtomatlashtirish hamda axborot tizimlari integratsiyasini kengaytirish orqali fuqarolarga

2 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilashga qaratilgan. Mazkur loyiha davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan iqtisodiy islohotlar moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirilayotgan sanoat infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar sanoat sektorining modernizatsiyasini jadallashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro moliya institutlari va xorijiy moliyaviy tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar mamlakatning kompleks iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasini qamrab olgan holda izchil amalga oshirilmoqda. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, energetika tizimini ekologik barqarorlashtirish, ijtimoiy sohani mustahkamlash, raqamli tizimlarni joriy etish hamda ekologik muhitni yaxshilash kabi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan loyihalar O'zbekistonni mintaqaviy va global iqtisodiy maydonda raqobatbardosh hamda barqaror rivojlanayotgan davlatga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu xalqaro moliyaviy hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, aholi farovonligini oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, mazkur hamkorlik O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga samarali integratsiyasini ta'minlash hamda mintaqaviy hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etish yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda. Ayniqsa, transport va infratuzilma sohasidagi yirik loyihalar mamlakatning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyasini tezlashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik O'zbekiston uchun yangi rivojlanish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa yirik moliyaviy institutlarning moliyaviy hamda texnik ko'magi mamlakat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport tarmoqlarini kengaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Aynan shu kontekstda Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasi mamlakatning strategik rivojlanish rejasida alohida o'rin tutadi.

Mazkur loyiha Farg'ona vodiysining sanoat va qishloq xo'jaligi salohiyatini kengaytirish, respublika iqtisodiyoti uchun yangi eksport yo'nalishlarini yaratish hamda mintaqalararo savdo va transport aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy temir yo'l infratuzilmasining barpo etilishi transport-logistika tizimini optimallashtirish, yuk tashish samaradorligini oshirish hamda mahalliy va xalqaro investitsiyalarni jalb etishda muhim omil hisoblanadi.

Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasi nafaqat milliy iqtisodiyot o'sish sur'atlarini jadallashtirishga qaratilgan, balki uning amalga oshirilishida xalqaro moliya institutlarining ishtiroki loyiha sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur loyiha katta moliyaviy sarmoyalar va ilg'or texnologiyalarni talab etadi. Shu sababli xalqaro moliya institutlarining ekspertiza tajribasi, investitsiyalari va boshqaruv amaliyoti mamlakat uchun muhim ustunlik hisoblanadi.

Ushbu hamkorlik transport sohasida yangi infratuzilma barpo etish bilan bir qatorda raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini ham yaratadi. Loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri keng qamrovli bo'lib, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholining harakatlanish imkoniyatlarining kengayishi hamda mintaqaviy rivojlanishning mustahkamlanishi kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Shu tariqa, xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan ushbu loyiha O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida mamlakatning mintaqaviy hamda global iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda (3-jadval).

3-jadval. Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasining asosiy ko'rsatkichlari³

№	Loyiha nomi	Yo'nalish	Uzunligi (km)	Qiymati (mlrd AQSh dollari)	Qurilish muddati
1	Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi	Toshkent–Andijon	314	4.65	2027-yil oxirigacha

Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasi O'zbekiston transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish jarayonida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Uzunligi 314 kilometrni tashkil etadigan ushbu temir yo'l liniyasi nafaqat mamlakat ichidagi hududlar o'rtasidagi transport aloqalarini mustahkamlash, balki mintaqaning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyasini kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



Loyiha qiymati 4,65 milliard AQSh dollarini tashkil etib, u mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan eng yirik infratuzilma investitsiyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur moliyaviy hajm loyiha doirasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori sifatli qurilish materiallaridan foydalanish hamda xalqaro standartlarga muvofiq xavfsizlik va sifat nazoratini ta'minlash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, temir yo'l infratuzilmasining uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Loyiha qurilishining 2027-yil oxirigacha yakunlanishi rejalashtirilgan bo'lib, ushbu davr mobaynida barcha bosqichlarda samarali boshqaruv tizimini tashkil etish, resurslardan optimal foydalanish hamda qurilish jarayonlarini qat'iy nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat zamonaviy transport tizimini shakllantirishga, balki respublika iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur loyihaning to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy natijalaridan biri logistika xarajatlarining kamayishi, yuk va yo'lovchi tashish tezligining oshishi hamda mamlakat ichidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir. Shu sababli, Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li loyihasi O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, mintaqaviy rivojlanish va modernizatsiya jarayonlariga yangi turtki beradi (4-jadval).

4-jadval. Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishining maqsadi va ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri⁴

Loyiha nomi	Loyihaning maqsadi	Ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri
Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi	Farg'ona vodiysini mamlakatning boshqa hududlari bilan bog'lash, yuk va yo'lovchi tashishni samarali tashkil qilish hamda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish	Transport va logistika samaradorligini oshirish, yuk tashish muddatlarini qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining transport imkoniyatlarini kengaytirish

Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasining asosiy maqsadi iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Farg'ona vodiysini mamlakatning boshqa hududlari bilan yanada samarali va tezkor tarzda bog'lashdan iborat. Farg'ona vodiysi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim hududlaridan biri bo'lib, ushbu mintaqada qishloq xo'jaligi, sanoat, savdo hamda xizmat ko'rsatish sohalari nisbatan yuqori darajada rivojlangan.

Mazkur loyiha amalga oshirilishi natijasida hududning eksport salohiyati sezilarli darajada oshib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasi kuchayadi. Bu esa nafaqat mintaqaviy iqtisodiy o'sishga, balki respublika iqtisodiyotining diversifikatsiya jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tezkor temir yo'li liniyasining ishga tushirilishi transport xarajatlarini kamaytirish, yuk va yo'lovchi oqimlarining tezligini oshirish hamda logistika jarayonlarining samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada biznes jarayonlari samaradorligi ortib, iqtisodiy faoliyat yanada faollashadi.

Loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri keng qamrovli bo'lib, u nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki jamiyat hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Transport infratuzilmasining takomillashuvi yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, bandlik darajasining oshishiga hamda aholi ijtimoiy barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, yangi temir yo'li liniyasining barpo etilishi yo'lovchilarga yanada qulay transport xizmatlarini taqdim etib, ularning harakatlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu esa aholining turmush darajasini oshirish, hududlararo aloqalarni mustahkamlash hamda mamlakat transport tizimining umumiy samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi (5-jadval).

5-jadval. Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li loyihasining moliyalashtirish manbalari⁵

Investor nomi	Moliyalashtirish shakli	Moliyalashtirish miqdori (mlrd AQSh dollari)	Izohlar
O'zbekiston Respublikasi hukumati	Davlat byudjeti	1.5	Loyihaning bir qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladi, infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan asosiy mablag'lar ajratilgan.
Xalqaro moliya institutlari	Kreditlar va grantlar	2.0	Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan taqdim etilgan uzoq muddatli kreditlar va grantlar.

4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Xususiy sektor va investorlar	Investitsiya fondlari va qarz moliyalashtirish	1.15	Xususiy kompaniyalar va xalqaro investorlar orqali jalb qilingan investitsiyalar.
Xitoy moliya institutlari	Kreditlar va investitsiyalar	0.8	Xitoy davlat va moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan moliyalashtirish, infratuzilmani kengaytirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, loyiha ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki temir yo'l transporti avtomobil transporti orqali amalga oshiriladigan yuk tashish hajmini kamaytirib, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlash hamda ijtimoiy taraqqiyotga erishish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasi O'zbekiston Respublikasining transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda mamlakatning ichki va tashqi transport tizimlarini samarali integratsiyalashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega yirik infratuzilma loyihalaridan biridir. Mazkur loyiha iqtisodiy jihatdan muhim va aholisi zich joylashgan Farg'ona vodiysini mamlakatning boshqa hududlari bilan samarali bog'lash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, u yuk va yo'lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur temir yo'l orqali transport-logistika tizimining samaradorligi oshiriladi, iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashadi, yangi investitsiyalar jalb qilinadi hamda eksport salohiyati sezilarli darajada kengayadi. Ushbu loyiha mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va rivojlantirishda muhim omil hisoblanib, mintaqaviy farovonlik va ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Transport tizimining yangilanishi bilan bir qatorda loyiha yangi ish o'rinlarini yaratish, aholiga qulay va arzon transport xizmatlarini taqdim etish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi muhim ijtimoiy maqsadlarni ham amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Toshkent–Andijon temir yo'li qurilishi nafaqat transport infratuzilmasini rivojlantirish, balki kengroq ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish hamda barqaror taraqqiyot uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Loyihaning moliyalashtirilishi murakkab va ko'p bosqichli mexanizm orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy manbalarni samarali birlashtirish imkonini beradi. Davlat tomonidan ajratilgan 1,5 milliard AQSh dollari miqdoridagi byudjet mablag'lari loyihaning poydevorini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish hamda monitoring jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda.

Bundan tashqari, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan uzoq muddatli kreditlar va grantlar shaklidagi 2 milliard AQSh dollariga yaqin mablag'lar loyiha doirasida xalqaro standartlarga muvofiq qurilish sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xususiy sektor va xalqaro investorlar tomonidan jalb qilingan 1,15 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar investitsiya fondlari hamda qarz moliyalashtirish mexanizmlari orqali loyiha samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, Xitoy moliya institutlari tomonidan ajratilgan 0,8 milliard AQSh dollari miqdoridagi kredit va investitsiyalar loyihaning texnik hamda infratuzilma bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa qurilish jarayonlarini jadallashtirish va ishlar sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

Turli manbalar orqali moliyalashtirishning uyg'unlashuvi loyiha uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, risklarni kamaytiradi hamda resurslarni maksimal darajada samarali taqsimlash imkonini yaratadi. Shu tariqa, Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasining moliyalashtirish mexanizmi mamlakat transport tizimini yangi bosqichga ko'tarish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy farovonlikni oshirish yo'lida muhim infratuzilma asosini yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Mazkur loyihaning umumiy moliyaviy hajmi 4,65 milliard AQSh dollarini tashkil etib, ushbu mablag'lar loyihaning turli komponentlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Loyiha xarajatlarining taqsimoti uning asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq aniq va tizimli tarzda rejalashtirilgan bo'lib, bu infratuzilmaning sifatli hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng katta ulush — 53,8 foiz — temir yo'l infratuzilmasi qurilishiga yo'naltirilgan bo'lib, relslar, platformalar, stansiyalar, tunnel va ko'priklar qurilishi uchun 2,5 milliard AQSh dollari ajratilgan. Ushbu ko'rsatkich loyihaning asosiy infratuzilma komponentlarini tashkil etadi, chunki mustahkam va zamonaviy infratuzilma barpo etilmasdan turib tezkor hamda xavfsiz transport tizimini yaratish mumkin emas.

Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlar temir yo'l infratuzilmasining mustahkamligi, uzoq muddat xizmat qilishi hamda xalqaro texnik standartlarga to'liq mos kelishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, infratuzilmaning rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, yuk tashish hajmini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun muhim zamin yaratadi (6-jadval).

6-jadval. Toshkent–Andijon tezkor temir yo‘li loyihasi xarajatlarning taqsimoti⁶

Xarajat turi	Tavsif	Qiymati (mlrd AQSh dollari)	Ulushi (%)
Infratuzilma qurilishi	Temir yo‘l relslari, platformalar, stansiyalar, tunnel va ko‘priklar qurilishi	2.5	53.8
Transport va signalizatsiya tizimi	Zamonaviy signalizatsiya va boshqaruv tizimlarini o‘rnatish hamda xavfsizlik choralarini ta‘minlash	0.8	17.2
Yangi texnologiyalar va uskunalar	Tezkor poyezdlar uchun texnik vositalar, vagonlar va lokomotivlar xaridi	0.9	19.4
Loyihalashtirish va loyiha boshqaruvi	Dizayn, muhandislik ishlari hamda loyiha monitoringi va boshqaruvi	0.3	6.5
Ijtimoiy va atrof-muhitga ta‘sirni kamaytirish	Ekologik himoya choralarini amalga oshirish va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash	0.15	3.1

Xarajatlar tarkibida navbatdagi muhim yo‘nalish transport va signalizatsiya tizimlarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishga loyiha xarajatlarning 17,2 foizi, ya‘ni 0,8 milliard AQSh dollari ajratilgan. Zamonaviy signalizatsiya va boshqaruv tizimlari transport xavfsizligini ta‘minlash, harakat oqimini nazorat qilish hamda yo‘lovchilar va yuklarni tezkor va samarali tashishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida avariya va to‘qnashuvlar ehtimoli sezilarli darajada kamaytiriladi, temir yo‘l tizimining ishonchiligi va barqarorligi oshiriladi. Signalizatsiya tizimlarining zamonaviyligi, shuningdek, loyiha amalga oshirilayotgan hududda transport jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ushbu komponentga ajratilgan moliyaviy resurslar temir yo‘l tizimining xavfsiz, tezkor va samarali faoliyat yuritishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Yangi texnologiyalar va uskunalar uchun ajratilgan mablag‘lar 0,9 milliard AQSh dollari yoki loyiha umumiy xarajatlarning 19,4 foizini tashkil etadi. Ushbu mablag‘lar tezkor poyezdlar uchun zamonaviy texnik vositalar, vagonlar va lokomotivlarni xarid qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishni qamrab oladi. Mazkur yo‘nalishning ahamiyati shundaki, zamonaviy uskunalar transport tezligini oshirish bilan bir qatorda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini ta‘minlash va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Tezkor poyezdlar va yangi texnologiyalar yordamida yo‘lovchilar hamda yuklarni tashish jarayoni sezilarli darajada optimallashtiriladi. Bu esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur investitsiyalar zamonaviy transport infratuzilmasini shakllantirish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish hamda milliy temir yo‘l tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihalashtirish va loyiha boshqaruvi yo‘nalishiga ajratilgan 0,3 milliard AQSh dollari, ya‘ni loyiha byudjetining 6,5 foizi, yuqori sifatli dizayn, muhandislik ishlari, monitoring hamda umumiy boshqaruv faoliyatlarini qamrab oladi. Mazkur xarajatlar loyihaning barcha bosqichlarida texnik va iqtisodiy jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rilishini, ishlarning sifatli bajarilishini hamda byudjet va vaqt rejalariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Loyihaning samarali boshqaruvi qurilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar va kechikishlarning oldini olish, resurslardan optimal foydalanish hamda loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalishning yetarli darajada moliyalashtirilishi loyiha risklarini kamaytiradi va barcha ishtirokchi tomonlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan faoliyatni ta‘minlaydi.

Shuningdek, ijtimoiy va atrof-muhitga ta‘sirni kamaytirish yo‘nalishiga 0,15 milliard AQSh dollari, ya‘ni loyiha xarajatlarning 3,1 foizi ajratilgan. Ushbu mablag‘lar ekologik himoya choralarini amalga oshirish hamda mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Mazkur yo‘nalish loyihaning ekologik barqarorligini ta‘minlash, atrof-muhitga salbiy ta‘sirlarni minimallashtirish hamda qurilish jarayonida mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan ushbu chora-tadbirlar hududlarda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi, yangi ish o‘rinlari yaratilishida mahalliy aholi ishtirokini ta‘minlaydi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish me‘yorlariga rioya qilinishini kafolatlaydi.

Shu tariqa, loyiha nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga ham asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining transport sohasini tubdan modernizatsiya qilish hamda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish jarayonida Toshkent–Andijon tezkor temir yo‘li qurilishi loyihasi muhim strategik bosqich hisoblanadi. Ushbu loyiha nafaqat mintaqaviy transport aloqalarini sezilarli darajada yaxshilashga, balki Farg‘ona vodiysi hamda respublikaning boshqa hududlarini samarali bog‘lash orqali iqtisodiy integratsiyani

6 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



mustahkamlashga xizmat qiladi. Tezkor temir yo'l liniyasining barpo etilishi natijasida yuk va yo'lovchi tashish tezligi oshadi hamda transport-logistika tizimining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu esa, o'z navbatida, eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur loyiha iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi imkoniyatlarni yaratadi. Natijada ishlab chiqarish hajmi hamda savdo aylanmasi ortadi. Shu bilan birga, transport xarajatlarining kamayishi va yuk yetkazib berish muddatlarining qisqarishi milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining global bozorga integratsiya jarayonlarini yanada jadallashtiradi.

Shuningdek, loyiha ijtimoiy va ekologik jihatdan ham muhim ijobiy natijalarga ega. Yangi temir yo'l infratuzilmasining barpo etilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, bu esa aholining bandligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yo'lovchilar uchun transport xizmatlarining qulayligi va xavfsizligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, transport tizimining raqamli transformatsiyasi doirasida yangi texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etiladi. Bu esa nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni kengaytirish uchun zarur bo'lgan raqamli infratuzilmani shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan loyiha atrof-muhitni muhofaza qilish choralari kuchaytirish bilan bir qatorda yoqilg'i sarfini kamaytirish hamda atmosfera ifloslanishini qisqartirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa O'zbekistonning global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash bo'yicha majburiyatlarini amalga oshirishga muhim hissa qo'shadi.

Umuman olganda, Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi nafaqat transport tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi, balki milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi keng ko'lamli strategik loyiha sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari O'zbekiston Respublikasining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim moliyaviy va institutsional omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur hamkorlik transport infratuzilmasi, energetika, qishloq xo'jaligi, raqamli iqtisodiyot hamda ijtimoiy sohalarda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, transport va logistika tizimini takomillashtirishga qaratilgan loyihalar iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda mamlakatning mintaqaviy transport markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Maqolada alohida tahlil qilingan Toshkent–Andijon tezkor temir yo'li qurilishi loyihasi mamlakat transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va Farg'ona vodiysining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Loyiha amalga oshirilishi natijasida transport-logistika tizimining samaradorligi oshishi, yuk va yo'lovchi tashish vaqtining qisqarishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi kutilmoqda.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan energetika, qishloq xo'jaligi, raqamli transformatsiya hamda ijtimoiy sohalardagi loyihalar mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlararo diversifikatsiyasiga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini kuchaytirish hamda investitsiya jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlik O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Kelgusida mazkur hamkorlikni yanada kengaytirish, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish hamda moliyaviy resurslardan maqsadli va samarali foydalanish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2025). World Development Report 2025: Finance for an Equitable Recovery. – Washington, DC.
2. Asian Development Bank. (2025). Asian Development Outlook 2025. – Manila.
3. Stiglitz, J. (2002). Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company.
4. Sachs, J. (2005). The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. – New York: Penguin Press.



5. Pomfret, R. (2019). The Central Asian Economies in the Twenty-First Century. – Princeton: Princeton University Press.
6. European Bank for Reconstruction and Development. (2025). Transition Report 2025. – London.
7. International Monetary Fund. (2025). Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia. – Washington, DC.
8. Yuldashev, N. (2020). Xalqaro moliya institutlari va iqtisodiy rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot.
9. Abdullayev, Sh. (2021). Investitsiya siyosati va iqtisodiy o'sish omillari. – Toshkent.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). Investitsiya loyihalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar. – Toshkent.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100